
Tergov hibsxonasidagi xotin-qizlar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi

Farg'ona viloyati va shahar hokimliklari, viloyat prokuraturasi, oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda shahar bo'limi, sog'liqni saqlash boshqarmasi, shuningdek jazoni ijro etish Departamenti 2-mintaqaviy hudud 10-son tergov hibsxonasi hamkorligida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazildi.

10-son tergov hibsxonasida vaqtincha jazo muddatini o'tayotgan barcha xotin-qizlar 20 ga yaqin malakali shifokorlar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ularda aniqlangan kasalliklar bo'yicha 300 mln. so'm miqdordagi dori-darmonlar ajratildi.

Jarayonlarda viloyat prokuraturasi vakillari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komilaxon Kavlonova, shahar bo'limi boshlig'i Dilshodaxon Xolmatovalar ham ishtirok etishdi. Mas'ullar mahbuslar bilan suhbatlar o'tkazishdi. Ularga yaratilgan sharoitlarni o'rganishdi. Hibsxonadagi xotin-qizlar berilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklardan mamnun ekanliklarini ta'kidlab o'tishdi.

2023-08-25 16:00:24